
TOSHLOQ TUMANIDA “MAHALLADA DUV-DUV GAP” TADBIRI O‘TKAZILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida 2023 yil 22 dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi yig‘ilishida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash hamda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, erishilayotgan yutuqlarni xalqimizga yetkazish maqsadida Toshloq tumanidagi barcha mahallalarida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy va madaniy-musiqiy tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.

Bugun “Xonariq”, “Mehnatobod”, “Naymanbo‘ston” MFYlar aholisi uchun “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy va madaniy-musiqiy tadbir o‘tkazildi.

Tuman hokimligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi, Oila va xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi, tuman madaniyat bo‘limlari hamkorligida o‘tkazilgan tadbirda tuman hokimi o‘rinbosari E.Madaminov, tuman bosh imom xatibi I.To‘ychiyev hamda FarPI prorektori Sh.Dehqonov va kafedra mudiri K.Abdusalomovlar so‘zga chiqdilar.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar mamlakatimizda mahallalarga berilayotgan e’tibor, keyingi yillarda butunlay yangicha qiyofa kasb etayotgan ushbu maskanlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, mazkur tadbirning mazmun-mohiyati haqida ta’kidlab o‘tdilar.

Konsert dasturi tadbir ishtirokchilariga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

2024-01-03 18:07:10